

Farg'ona sh.

2022 yil 16 noyabr.

Farg'ona Mintakaviy Yo'llarga Buyurtmachi Xizmati Davlat Unitar Korxonasi (keyingi o'rirlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan, amaldagi Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi korxona direktori Sh.Po'latov bir tarafdan va "FARG'ONA PIRAMIDA FAYZLI MCHJ" (keyingi o'rirlarda «Pudratchi» deb yuritiladi) nomidan, amaldagi Nizomga asosan faoliyat yurituvchi direktori ikkinchi tarafdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sen qaroriga asosan "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar" 2022-yil "Tashabbusli byudjet" dasturi doirasida Farg'ona viloyatidagi ichki xo'jalik yo'llarini mahalliy byudjeti mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha mazkur Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar: Lot№ 22110012175689

## 1.TARIFLAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

**ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ishechi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlар, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatlari konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdag'i sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlар;

**qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

**vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

**berkitiladigan ishlar** – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

**shartnoma narxini bo'lib chiqish** – ishlarning xar bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilangan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy bosqichlarga taqsimlash (ishlar bajarish va moliyalashtirish jadvallari).

## 2. ShARTNOMA MAVZUSI.

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sen qaroriga asosan "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taminlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar" 2022-yil "Tashabbusli byudjet" dasturi doirasida Farg'ona viloyatidagi ichki xo'jalik yo'llarini mahalliy byudjeti mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash ishlari "Buyurtmachi" topshirigiga asosan Farg'ona viloyati Uchkuprik tuman Anhor buyi MFY si ichki yo'llarini joriy ta'mirlash ishlarini loyixa-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan xolda bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi"ga ishlarni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## 3. ShARTNOMA BO'YICH A IShLAR QIYMATI.

- 3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan umumiy ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **1 160 000 000** (Bir milliard bir yuz oltmissi million) sumni tashkil etadi.

- 3.2. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi

- 3.3 Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi

## 4.PUDRATChINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofik ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofik topshirish;

- zarur xollarda ayrim ish turlarining bajarilishida loyixa-smeta xujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniغا, o'rindosh mashina-mexanizmdan foydalanishi, belgilangan sifat laboratoriysi xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiatlarni to'lik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

- shartnoma shartlariga asosan ob'ektni buyurtmachiga tasdiqlangan loyixaga muvofiq topshiradi;

- Pudratchi Buyurtmachi oldida yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun javobgar bo'ladi.

4.2. "Pudratchi" mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun "Buyurtmachi" oldida tulik mulkiy javob beradi.

4.3. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiyomatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun ishlilgan muddatda o'z xisobidan qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnomaga 3.3-bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan xollar bundan mustasno.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 5. BUYURTMA CHINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- "Pudratchi"ni o'z vaqtida loyixa-smeta xujjatlari bilan ta'minlaydi;

- mazkur shartnomaga imzolangan kundan boshlab ishlarni bajarish uchun ob'ektni ishlar tugallagungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha "Pudratchi"ga beradi;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan "Pudratchi" tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, "Pudratchi"dan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlashni amalga oshiradi;

- ushbushartnomadanazardatutilganmuddatdava miqdorda "Pudratchi"ga xaq to'laydi;

- "Pudratchi"ningbarchamurojaatlarinio'n kun muddatda ko'ribchiqadi.

## 6. TO'LOV SHARTLARI VA XISOB-KITOBLAR.

6.1. "Buyurtmachi" ushbu shartnomaga asosan "Pudratchi"ning xisob raqamiga shartnomada ko'rsatilgan qiyomatning 15%gacha miqdorida 2-ilovaga asosan avans mablag'ini o'tkazadi.

6.2. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni tekshirilganidan keyin berilgan avansni xisobga olgan xolda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofik ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiyomatining 85% miqdorida amalga oshiriladi. 5 foizlik ob'ekt kafolat muddati tugagandan so'ng moliyalashtiriladi.

6.3. "Pudratchi"ning boshqa xarajatlari loyixa-smeta xujjatlari ko'rsatilgan boshqaxarajatlar qiyamatidan oshmagan xolda to'lovga qabul qilinadi.

6.4. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnomaga bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

## 7. ISHLARNI BAJARISH.

7.1. Pudratchi mazkur shartnomaga kuchga kirgana kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

7.2. "Buyurtmachi" qurilish maydonida o'z vakilini - texnik auditorini tayinlaydi. U "Buyurtmachi"ning nomidai bajarilayotgai ishlarni sifatiustidan texnik nazoratni amalga oshiradi.

## 8. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.

8.1. Agar ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bo'l maydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar bunday majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.2. Pudratchining mazkur shartnomani bajarish uchun boshqa shartlashuvi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, Pudratchida zarur pul mablag'larining bo'l maydiganligi fors-mafor xolatlarga kirmaydi.

Mazkur shartnomaga bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.3. Agar yengib bo'l maydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilib qilishini muxokama qiladilar.

8.4. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnomaga bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

## 9. KAFOLATLAR.

### 9.1. "Pudratchi":

- barcha ishlarni to'liq xajmda sifatli va mazkur shartnomaga shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini kafolatlaydi.

### 9.2. "Pudratchi":

- barcha ishlarni to'liq xajmda va mazkur shartnomaga shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

- loyixa xujjatlari xamda qurilish me'yordi, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni sifatli bajarilishini ta'minlashi lozim;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlari ko'rsatilgan sertifikatlarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchilik va nuksonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi, ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati

Shartnomaga ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida bir yil etib beradi.

9.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga kadar foydalanishni davom etgirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u xolda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar "Pudratchi" tomonidan uning o'z xisobidan bartaraf etiladi.

9.4. Agar "Pudratchi" bajarilgan ishlardagi nuqson va chala ishlarni dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda "Buyurtmachi" tomonidan 5%li kafolat summasini "Pudratchi"dan ushlab qolish xuquqiga ega.

9.5. "Pudratchi" nuqsonlar va chala ishlarni ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi» tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudiga murojaat qilishdan istisno etmaydi.

## 10. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

10.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun xujjalarda xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

10.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rstaigano'z majburiyatlariga rioxaliga qilmaganligi, ob'ekt xisob raqamiga mablag'lar berilgandan so'ng o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% mikdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50% oshmasligi lozim. Penya to'lanishi "Buyurtmachi"ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.3. "Pudratchi" ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5% mikdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50%dan oshmasligi lozim. Penya to'lash "Pudratchi"ni ishlarnibajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.4. Agar bajarilgan ishlarni sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yordi va qoidalari, ish xujjalarda muvofik bo'limasa, u xolda "Buyurtmachi" «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l qurilish ishlarni sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi»ning xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek "Pudratchi"dan sifati zarur darajada bo'limagan ishlarni qiymatining 100% gacha miqdorida jarima undirish xuquqiga ega.

## 11. NIZOLARNI XAL QILISH.

11.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizolni masalalarini tomonlar xal etolmasa ular konun xujjalarda, belgilangan tartibda Iqtisodiy Sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

## 12. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

### 12.1. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin kurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'limagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioxaliga etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yordi va qoidalarda nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjalarda muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

### 12.2. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'limagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun xujjalarda muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

12.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish 15 kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiymatini Pudratchiga to'laydi.

12.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

12.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

12.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjalarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

## 13. SHARTNOMAGA KO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI.

13.1. Ushbu shartnomaga xar qanday kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, xar ikkala taraf imzolagan xollardagina xaqiqiy kuchga ega bo'ladi.

13.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor kilish taraflarning kelishivi bo'yicha yoxud O'zbekiston aholikasining amaldagi Fukarolik kodeksi va konun xujjalarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, yetkazilgan zararlarni koplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

13.3. Shartnomani bekor kilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

#### **14. MAJBURIYATLARNI AMALDA BO'LISH ShARTI VA MUDDATI.**

14.1. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng Viloyat G'aznachilik Boshqarmasi (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrigacha amal qiladi.

14.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (Ikki) nusxada tuzildi.

14.3. Mazkur shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1-ilova - Bajarish jadvali.
- 2-ilova - Moliyalashtirish jadvali.

#### **14. TARAFLARNING YuRIDIK MANZILLARI VA TO'LOV REKVIZITLARI.**

##### **"BUYuRTMACHI"**

Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati davlat  
unitar korxonasi

Manzil: Farg'ona sh. Aeroport ko'chasi 1-uy  
Tel./faks: +99873-249-50-53

ShG'H: 401722860302217045204118003

INN:304 899 935

Farg'ona viloyati G'aznachilikboshkarmasi

YaG'H: 23 402 000 300 100 001010

Bank nomi: Markaziybankning Toshkentshahar  
Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)  
MFO:00014 G'aznachilikbo'linmasining  
STIR: 201 122919

Buyurtmachi rahbari

Sh.Po'latov



##### **"PUDRATChI"**

##### **"FARG'ONA PIRAMIDA FAYZLI" x/k**

Manzil: Margilon shahar Gulzor kuchasi 27 yil  
Tel./faks:

INN: 301 708 065

X/R: 20 208 000 404 870 506 001

Bank: Uvversal bank Faragona sh

MFO: 01 131

STIR:

Pudratchi direktori O.Yermnov



#### **XUQUQIY XULOSA**

Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 12.09.2003-yildagi 395-sonli qarori va boshqa me'yoriy xujjalarga asoslangan xolda to'g'ri tuzilgan. Shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtaсидаги majburiyatlarni bajarish muddati, predmeti, narxi va javobgarlik shartlari kelishib olingan. Shartnomani imzolash mumkin.

Buyurtmachi yuristi

R.Alimov



Farg'ona viloyati Farg'ona viloyati Uchkuprik turman Anhor buyi  
MFY joriy ta'mirish ob'ektnining \_\_\_\_\_ sonli  
shartnomasiga 1-illova

Farg'ona viloyati Farg'ona viloyati Uchkuprik tuman Anhor buyi MFY joriy ta'mirlash ob'ektining

Bajarish Jadvali



"ПУДРАТЧИ"



"БУЮРТМАЧИ"

**Moliyalashtirish Jadvali**

Respublika byudjet mablag'lari xisobidan

Farg'onan viloyati Farg'ona viloyati Uchchukuprik tumani Anhor buyi MFY joriyi ta'mirlash ob'ekting

	Условия финансирования	20222												Jami ob'ektt bo'yicha mln.sum.
		Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	
1	<u>30% avans</u>													174,000
	harmonadagi umumiy bajariladigan ish xajmi qynatidandan													174,000
2	<u>Joriy moliyalashtirish</u>													986,000
	bajarilgan ishga nisbatan proportional ravishda ajratigan avansni ino-batga olgan holda													986,000
	<b>JAMI:</b>													1160,000
3	<u>Qolgan 5% mablag' kafolat muddati tugagunga qadar</u>													1160,000
	<b>JAMI OB'YEKT BO'YChA</b>													1160,000

**"ПУДРАТЧИ"****"БУОРТМАЧИ"**